

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOY FAOL FUQAROLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xolmatova Muzayyan,

Qo‘qon davlat universitetining Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda uni shakllantirishga ta‘sir etuvchi omillar yoritilgan. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish orqali talabalarning fuqarolik mas‘uliyati, ijtimoiy faolligi, huquqiy madaniyati va jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta‘lim bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini samarali rivojlantirishga xizmat qilishi asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** bo‘lajak o‘qituvchi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligi, kompetensiyaviy yondashuv, fuqarolik mas‘uliyati, ijtimoiy faollik, huquqiy madaniyat, fuqarolik pozitsiyasi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, oliy ta‘lim, tarbiya, demokratik qadriyatlar.

**Annotation.** This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of the development of socially active citizenship competence in future teachers. It also covers the content, structural components of socially active citizenship competence, and factors influencing its formation. The possibilities of strengthening students' civic responsibility, social activity, legal culture, and participation in public life by organizing the educational process in higher educational institutions on the basis of a competency-based approach are shown. According to the results of the study, it is established that innovative pedagogical technologies, interactive methods, and practical activity-oriented education contribute to the effective development of socially active citizenship competence in future teachers.

**Keywords:** future teacher, socially active citizenship competence, competency-based approach, civic responsibility, social activism, legal culture, civic position, pedagogical technologies, interactive methods, higher education, upbringing, democratic values.

**Аннотация.** В статье анализируются теоретико-педагогические основы развития компетенции социально активного гражданина у будущих учителей. Рассматриваются содержание, структурные компоненты компетенции социально активного гражданина и факторы, влияющие на ее формирование. Показаны возможности укрепления гражданской ответственности, социальной активности, правовой культуры и участия учащихся в общественной жизни путем организации образовательного процесса в высших учебных заведениях на основе компетентностного подхода. По результатам исследования установлено, что инновационные педагогические технологии, интерактивные методы и практико-деятельно-ориентированное образование способствуют эффективному развитию компетенции социально активного гражданина у будущих учителей.

**Ключевые слова:** будущий учитель, социально активная гражданская компетентность, компетентностный подход, гражданская ответственность, социальный активизм, правовая культура, гражданская позиция, педагогические технологии, интерактивные методы, высшее образование, воспитание, демократические ценности.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Oliy ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat bilimli mutaxassis, balki ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi shaxsni tarbiyalashdan iborat. Talabalarda ijtimoiy faol kompetensiyalarni shakllantirish demokratik jamiyat qurish, fuqarolik mas‘uliyatini

rivojlantirish va yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi O'zbekiston Respublikasida "2030 yilgacha Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da milliy ta'lim tizimini yangi natijaga erishishga yo'naltirishda "universal bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning yangi tizimi, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyat va shaxsiy mas'uliyat tajribasi, ya'ni zamonaviy asosiy kompetensiyalar" sifatida xizmat qiladi deb ta'kidlangan O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar negizida mamlakatimizning buguni va ertasi bo'lgan – yoshlarni ijtimoiy faol fuqaro sifatida tarbiyalash dolzarb masala sifatida ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ijtimoiy faol barkamol yoshlarni tarbiyalash masalasiga to'xtalib o'tar ekan: 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz" degan ushbu murojaatlari zamirida ham ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh-avlodni ijtimoiy faol fuqaro sifatida kamol topishi muhim ahamiyat kasb etadi. degan fikrlari o'rinli ekanligini ta'kidlash joiz hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yosh-avlod tarbiyasi to'g'risida shunday fikr bildirgan edi "Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il – qizlarimiz amal qilishlarini men juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi,

baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq" dir deya ta'kidlagan.

Talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka va amaliy faoliyat tajribasi kompetensiya bilan uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz tadqiqot ishimizda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi talaba o'quv jarayonida shaxsiy faolligi, tashabbuskorligi, muammoning yechimi to'g'risida mustaqil qarashlari bilan javob bera olish psixologik xususiyatlari, mashg'ulot olib borish jarayonida zamonaviy interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlangani, talabada motivasiyaning ijtimoiylashgani bilan chambarchas bog'liq ekanligini aniqladik.

**Adabiyotlar tahlili.** Mahalliy olimlar N.A. Muslimov, O'. Tolipov va M. Usmonboyeva, R. Ishmuhamedov va boshqalar, N.N. Azizxo'jayeva tadqiqotlarida kompetensiyaviy yondashuv va interfaol metodlar talabalarda amaliy ko'nikmalar hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim ekanligi ta'kidlangan.

S.S. G'ulomov hamda Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida fuqarolik jamiyati, ijtimoiy mas'uliyat va demokratik qadriyatlarni shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rsatiladi.

Xorijiy adabiyotlarda J. Dewey, P. Freire, J.A. Banks fuqarolik ta'limini amaliy faoliyat, tanqidiy fikrlash va demokratik ishtirok bilan bog'laydi. UNESCO, OECD va boshqa xalqaro manbalarda esa global fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Talabani ijtimoiy faolligi oshirishda avvalo, o'zini-o'zi faollashtirish, o'quv jarayonida erishgan yutuqlarini o'zini-o'zi baholash prinsipi asosida qurish muhim rol o'ynaydi. Talabani individual-shaxsiy javobi, o'z o'quv faolligini tahlil qilishga undovchi vaziyatlarga jalb etish zarur.

Talaba uchun o'quv mashg'ulotidagi muvaffaqiyatlilikning bosh mezoni o'qituvchi unga qo'yadigan baho emas, balki aniq bir o'quv yutug'i, topshiriqni bajarishning mahsuldorligi bo'lishi kerak. Talaba o'z hatti-harakatlarining natijasini mustaqil baholash, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'z xatolarini toppish va to'g'rilash ko'nikmasi o'z irodasini rivojlantirishga bog'liq.

Talaba o'zining ijtimoiy loyihalari bilan, seminar treninglar va turli tashabbuskor, volontyorlik guruhlarida ishtirok etishning ijobiy tajribasi, fuqarolik sohasidagi faoliyatga nisbatan xavotirlanuvchanlikning pasayishiga ko'maklashadi. Chunki, bularning barchasi tashabbuskorlik, maqsadga intiluvchanlik, o'zining ijtimoiy yo'nalgan nuqtai nazarini himoyalashda qat'iyatlilikning, ya'ni individual sifatning rivojlanishiga ko'maklashishi kerak.

Talabalarda qadriyatli yo'nalganlik komponentlarini rivojlantirish zaruratiga ko'ra ta'lim muassasasining demokratik hayot tarzi, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda zamonaviy qarashlarga murojaat etish zarur, chunki, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi maktab ta'lim tizimida (Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Ma'naviyat asoslari, Konstitutsiyaviy huquq asoslari) shakllantirilsa, oliy ta'lim tizimida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarni (O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi: Fuqarolik jamiyati, Umumiy pedagogika) fanlar orqali rivojlantirish muhim o'rin egallaydi.

Demak, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim-tizimida individual-shaxsiy yondashuvga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ta'lim muassasasining hayot tarzi - butun ta'lim muassasasi ijtimoiy hayotining demokratik uslubi, muhitini belgilovchi o'quv-tarbiya jarayonining barcha elementlarining hamkorlikdagi tashkil etilishidir deb ta'kidlaydi.

**Tahlillar natijalar.** Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari o'rganildi hamda mazkur kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan metodik tizimning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini

kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarning fuqarolik mas'uliyati, jamiyat hayotidagi faolligi va ijtimoiy tashabbuskorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligining motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy va reflektiv-baholash komponentlari aniqlandi hamda ularning o'zaro bog'liqligi asoslab berildi. Natijalarga ko'ra, talabalarda fuqarolik burchi va mas'uliyati to'g'risidagi bilimlarning shakllanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Ayniqsa, talabalarining davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning ishtiroki, qonun ustuvorligi, inson huquqlari va demokratik qadriyatlar haqidagi bilimlari oshgan sari ularning ijtimoiy faollik darajasi ham ortib borishi kuzatildi.

O'quv mashg'ulotlarida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, munozaralar, loyiha ishlari, debatlar va keys-stadi texnologiyalaridan foydalanish talabalarining mustaqil fikrlash, o'z nuqtayi nazarini asoslab berish va jamoatchilik faoliyatida faol ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar ijtimoiy muammolarni tahlil qilish, ularga nisbatan fuqarolik pozitsiyasini bildirish va amaliy yechimlar ishlab chiqishda yuqori natijalarni namoyon etdilar.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarni turli ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi tadbirlar hamda mahalla va ta'lim muassasalari bilan bog'liq amaliy ishlarga jalb etish ularning ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bunday faoliyatlar natijasida talabalarda jamiyat muammolariga befarq bo'lmaslik, fuqarolik tashabbuslarini ilgari surish, jamoa bilan ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish kabi sifatlar shakllandi.

Shuningdek, raqamli ta'lim resurslari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy axborotlarni izlash, tahlil qilish hamda ulardan oqilona foydalanish ko'nikmalari rivojlanganligi aniqlandi. Talabalar axborotlarni tanqidiy baholash, yolg'on va manipulyativ ma'lumotlarni ajratish hamda media madaniyat talabalariga rioya qilish bo'yicha muayyan tajribaga ega bo'ldilar.

Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va pedagogik shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi isbotlandi. Eksperimental ishlar natijalari talabalarining fuqarolik ongini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish, demokratik qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash va kasbiy faoliyatida faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish darajasining sezilarli ravishda oshganligini ko'rsatdi. Bu esa kelajakda yosh avlodni vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalay oladigan malakali pedagoglarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Olingan natijalar bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirish jarayonini tizimli tashkil etish, ta'lim mazmunini fuqarolik tarbiyasi bilan integratsiyalash va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini tasdiqladi. Mazkur natijalar oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining tahlili bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqladi. Globallashuv, axborotlashuv va demokratik jamiyat qurish jarayonlari sharoitida pedagog kadrlarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki yuqori darajadagi fuqarolik madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat va faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tadqiqot davomida aniqlangan natijalar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda aniqlanganidek, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligining rivojlanishi faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmaydi. Talabalarning amaliy faoliyatga jalb etilishi, jamoatchilik ishlarida ishtiroki va real ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyatlari mazkur kompetentlikning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu holat kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillariga mos keladi, ya'ni bilim amaliy faoliyat bilan uyg'unlashgandagina shaxsning barqaror kompetensiyalari shakllanadi.

Olingan natijalar bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari bilan hamohang ekanligi kuzatildi. Xususan, fuqarolik kompetentligini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda demokratik qadriyatlarni anglash, jamiyat hayotidagi faol ishtirok, ijtimoiy mas'uliyat va huquqiy madaniyat fuqarolik kompetentligining asosiy tarkibiy qismlari sifatida e'tirof etiladi. Bizning tadqiqotimizda ham aynan shu komponentlarning rivojlanishi talabalarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib kelishi aniqlandi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandiki, bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhiti alohida o'rin tutadi. Talabalar erkin fikr almashish, o'z qarashlarini himoya qilish va jamoa bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan muhitda ularning fuqarolik faolligi yuqori darajada shakllanadi. Aksincha, faqat reproduktiv o'qitish usullariga asoslangan ta'lim jarayonida talabalarning tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligi yetarli darajada rivojlanmasligi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalari interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligini ham tasdiqladi. Debatlar, munozaralar, loyiha ishlari, keys-stadi va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati, ijtimoiy masalalarni tahlil qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini

rivojlantirishga xizmat qildi. Bu esa ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligining amaliy jihatlarini shakllantirishda mazkur metodlarning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama natijalariga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Mazkur jarayonda ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyatlari o'zaro integratsiyalashgan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki fuqarolik kompetentligi alohida bir fan yoki mashg'ulot doirasida emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida shakllanadigan murakkab integrativ sifat hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ayrim talabalarda fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy tashabbuskorlikning yetarli darajada shakllanmaganligi, jamoatchilik faoliyatida ishtirok etishga bo'lgan qiziqishning pastligi hamda fuqarolik pozitsiyasini erkin ifodalash ko'nikmalarining rivojlanmaganligi aniqlandi. Bu holatlar oliy ta'lim muassasalarida mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish hamda talabalarning fuqarolik faolligini qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish zarurligini tasdiqlaydi. Bu esa kelgusida jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan, fuqarolik mas'uliyatiga ega va ijtimoiy faol pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

**Xulosa**/Mazkur tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga hamda uni takomillashtirishga qaratildi. Tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligi bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi tarkibidagi muhim integrativ sifat ekanligi, u fuqarolik ongini, huquqiy madaniyatni, ijtimoiy mas'uliyatni, demokratik qadriyatlarga sodiqlikni va jamiyat hayotidagi faol ishtirokni o'zida mujassamlashtirishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirish jarayoni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilganda samaraliroq natijalar beradi. Bunda ta'lim mazmunini fuqarolik tarbiyasi bilan uyg'unlashtirish, talabalarni ijtimoiy loyihalar va jamoatchilik faoliyatiga jalb etish, interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratish muhim pedagogik shartlar sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot davomida ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligining motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlari ajratib ko'rsatildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi asoslandi. Ushbu komponentlarning uyg'un rivojlanishi talabalarda fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga, jamiyat hayotidagi jarayonlarga ongli munosabat bildirishiga va ijtimoiy tashabbuskorlikning ortishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, ta'lim jarayoniga debat, munozara, keys-stadi, loyiha metodi, muammoli ta'lim va hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini keng joriy etish, volontyorlik faoliyati hamda ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi. Ushbu tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi talabalarning fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas'uliyati va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida fuqarolik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik mexanizmlarni yaratish, tarbiyaviy faoliyat mazmunini boyitish va ta'limning innovatsion shakllaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Chunki kelajakdagi o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki yosh avlodning fuqarolik ongini shakllantiruvchi, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi va demokratik qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi shaxs hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirish oliy pedagogik ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, mazkur kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan maqsadli, tizimli va innovatsion pedagogik faoliyat ta'lim sifatini oshirishga, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga hamda ijtimoiy mas'uliyatli, tashabbuskor va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ushbu yo'nalishdagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 56 b.
6. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 315 b.
7. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 262 b.
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
9. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2016. – 240 b.
10. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. – 183 b.
11. G'ulomov S.S. Fuqarolik jamiyati asoslari. – Toshkent: Sharq, 2018. – 256 b.
12. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.
13. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
14. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
15. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 2005. – 183 p.

16. Banks J.A. Diversity and Citizenship Education: Global Perspectives. – San Francisco: Jossey-Bass, 2004. – 512 p.
17. Kerr D. Citizenship Education: An International Comparison. – London: NFER, 1999. – 150 p.
18. Hoskins B., Crick R.D. Learning to Learn and Civic Competences. – Luxembourg: European Commission, 2010. – 98 p.
19. Print M. Civic Education and Youth Participation in Democracy. – Rotterdam: Sense Publishers, 2007. – 228 p.
20. Kennedy K.J. Citizenship Education and the Modern State. – London: Routledge, 2012. – 256 p.
21. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 62 p.
22. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 45 p.
23. Eurydice. Citizenship Education at School in Europe. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 188 p.
24. Westheimer J., Kahne J. What Kind of Citizen? The Politics of Educating for Democracy // American Educational Research Journal. – 2004. – Vol. 41. – No. 2. – P. 237–269.
25. Torney-Purta J., Lehmann R., Oswald H., Schulz W. Citizenship and Education in Twenty-Eight Countries: Civic Knowledge and Engagement at Age Fourteen. – Amsterdam: IEA, 2001. – 210 p.

